

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 8-son (sentyabr, 2025-yil). – 47 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 26-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Xaydarova Mashxura, Valiyev Gulam

AYOLLAR YENGIL KOSTYUMI UCHUN 100% PAXTA TOLASIDAN YARATILGAN NAQSHLI
TO'QIMA TUZILMASINI ISHLAB CHIQUISH 4-8

TARIX FANLARI

Kulboev Nishonboy

RESEARCH CONDUCTED IN UVOLSOY 9-12

Sodiqov Erali

YOSHLARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKILLANTIRISHDA JADID
MARIFATPARVARLARINING ILG'OR G'OYALARIDAN FOYDALANISH 13-16

IQTISODIYOT FANLARI

Shukurov Ikrom

SAMARQAND VILOYATI TURIZM SOHASINING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINING
AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI TAHLIL ETISH 17-21

FALSAFA FANLARI

Yoqubova Nafisa

MILLATLARARO MADANIYAT INTEGRATSIYA JARAYONLARINING ASOSI 22-25

FILOLOGIYA FANLARI

Самиева Иродахон

КОРОТКО ОБ ИСТОРИИ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ В АМЕРИКЕ 26-31

Xoldorova Xulkaroy

TILSHUNOSLIKDA MATN VA UNING LINGVISTIK O'RGANILISH HOLATI 32-34

YURIDIK FANLARI

Sharipov Firdavs

OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATINING TARIXIY-
HUQUQIY TAHLILI: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 35-39

Salomov Xumoyun

DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDA PROKURATURA ORGANLARINING QONUNIYLIKNI
TA'MINLASHDAGI STRATEGIK VAZIFALARI 40-43

PEDAGOGIKA FANLARI

Mirzayeva Umidaxon

FIZIKA TA'LIM JARAYONIDA XALQARO BAHOLASH TOPSHIRIQLARI ASOSIDA BILIMLARNI
SHAKLLANTIRISH 44-46

YOSHLARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKILLANTIRISHDA JADID MARIFATPARVARLARINING ILG'OR G'OYALARIDAN FOYDALANISH

Sodiqov Erali Ismoil o'g'li

ilmiy tadqiqotchi

Email: eralisodiqov13@gmail.com

Tel: +998906990201

Qashqadaryo, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda yoshlar ongida vatanparvarlik ruhini shakllantirishda jadid taraqqiyparvarlarining ilg'or g'oyalari o'rni tahlil qilinadi. Jadidlarning ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish va taraqqiyotga intilish g'oyalari bugungi kunda yosh avlodni komil shaxs sifatida tarbiyalash, ularni Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillarga hurmat ruhida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan jadid merosining mazmuni, ularning asarlaridagi vatanparvarlik ruhini yoshlar tarbiyasiga tatbiq etishning nazariy va amaliy yo'nalishlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, taraqqiyparvarlik, ma'rifat, vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, milliy uyg'onish, qadriyatlar.

USING THE PROGRESSIVE IDEAS OF MODERN INTELLECTUALS TO INSTILL A SENSE OF PATRIOTISM IN YOUNG PEOPLE

Sodikov Erali

Scientific researcher

Annotation. This study analyzes the role of the progressive ideas of the Jadid progressives in the formation of the spirit of patriotism in the minds of young people. The ideas of enlightenment, national awakening and striving for progress of the Jadids are of great importance in educating the young generation as complete individuals today, forming them in the spirit of loyalty to the Motherland, national values and respect for universal principles. In this regard, the content of the Jadid heritage, theoretical and practical directions of applying the spirit of patriotism in their works to the education of young people are highlighted.

Key words: jadidism, progressiveness, enlightenment, patriotism, youth education, national awakening, values.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2025v1i8/n03>

“Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim: Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq” [11].

Bugungi globallashuv davrida yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish milliy taraqqiyotning muhim shartlaridan biridir. Milliy g'oya va mafkuraning asosiy vazifasi yoshlarni Vatanga sodiq, ma'rifatli va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashdir. Zero, birinchi Prizedentimiz Islom Karimovning “Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur” [12]. Shu ma'noda, XX asr boshlarida faoliyat yuritgan

jadid ziyolilarining ma'rifatparvarlik merosi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ularning ilg'or g'oyalari yosh avlodni Vatan taqdiriga befarq bo'lmaslikka, ilm va taraqqiyotga intilish ruhida tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi.

O'zining tarixiy merosini anglagan, o'tmishini e'zozlagan va tarixiy ildizlarini chuqur tushungan millat — mustahkam irodali va qudratli bo'ladi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, milliy ozodlik va istiqlol yo'lida fidokorona kurash olib borgan, buning yo'lida jonini fido qilgan taraqqiyparvar, marifatparvar jadidlarimizning jasorati, shuningdek, vatan taraqqiyoti yo'lida xizmat qilgan ilm-fan arboblarning hayoti va mehnatini o'rganish har bir tarixshunos tadqiqotchi, qolaversa, har bir avlod uchun bebaho ma'naviy boylik hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prizedenti Sh.M.Mirziyoyev "G'oyat qiyin va og'ir davrlarda ham ezgulik bayrog'ini baland ko'tarib maydonga chiqqan buxorolik Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Abduvohid Burxonov singari fidoyi zotlar el-yurt dardi va taqdirini o'ylab yashagan buyuk insonlar edi. Ayniqsa, jadidchilik harakatining dohiylaridan bo'lgan arbob va adib, birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitratning bu borada xizmatlari tahsinga sazovordir" [13] – deb ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, Abdurauf Fitratning bizga qoldirib ketgan merosi beqiyosdir; u siyosiy maydondagi kurashlar jarayonlaridan tortib, ilmiy asarlari va pedagogik qarashlaridir.

Jadidlar faoliyatida Vatan va millat ozodligi masalasi markaziy o'rinda turdi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Padarkush" dramasida milliy qoloqlik oqibatlarini ko'rsatib, xalqni ilm va ma'rifat sari da'vat etdi (Behbudiy, 1913). Fitrat esa o'zining "Milliy matbuotimiz" maqolasida "Millatning najoti – ilm va birlikdadir" deya yoshlarni ilmga, tafakkurga va vatanparvarlikka chorladi (Fitrat, 1917). Abdulla Avloniy esa "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "Millatni sevmok – Vatan uchun jon fido qilmoq demakdir" deya ta'kidlab, yoshlarni Vatan taqdiri uchun mas'uliyatli bo'lishga undadi. (Avloniy, 1913). Jadidlarning eng katta xizmatlaridan biri – ta'lim tizimiga yangilik kiritish bo'ldi. Ular eski uslubdagi maktablarni isloh qilib, yangi usul maktablarini tashkil etdilar. Bu maktablarda dunyoviy fanlar, xorijiy tillar, tabiatshunoslik va matematika o'qitilib, yoshlarning tafakkurini kengaytirishga e'tibor qaratildi (Ziyo, 2001). Avloniy asarlarida yoshlarning axloqiy tarbiyasi, halollik va vatanparvarlikni bir butun sifatida shakllantirish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, Cho'lpon o'z she'riyati orqali millatning ozodlik orzusini ifodalab, yoshlarda milliy g'ururni uyg'otadi. "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy asoslar muhim o'rin tutadi. O'zbekiston tarixi, qadimiy madaniyati va milliy qahramonlarning jasorati yosh avlod uchun ibrat bo'lib xizmat qiladi" [14]. Darhaqiqat, tarixiy meros va milliy qahramonlarning jasorati yoshlar qalbida g'urur hamda mas'uliyat tuyg'usini uyg'otib, ularni Vatanga sadoqatli bo'lishga undaydi.

"Mamlakatimizda Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ma'rifatparvar ajdodlarimizning faoliyatini tadqiq etish, inson qadri ulug'lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. O'z mohiyat e'tiboriga ko'ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo'lgan jadidchilik harakatining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o'ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda" [15]. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytadigan

bo'lsak, yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk, komil inson sifatida voyaga yetkazish, barqaror hamda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish jarayonida jadid marifatparvarlarimizning vatanparvarlik, insoniylik va ma'rifatga oid qarashlarini chuqur o'rganish bugungi kun uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida milliy merosni qayta tiklash jarayonida jadidlarning ilmiy-adabiy va pedagogik qarashlari keng o'rganila boshlandi. Hozirgi kunda ta'lim dasturlarida jadidlarning asarlari o'quvchilar va talabalar uchun muhim manba sifatida kiritilgan. Yoshlar tashkilotlari faoliyatida ham jadidlarning ilm, birlik va vatanparvarlik haqidagi g'oyalari targ'ib qilinmoqda. Demak, jadidlar merosi yosh avlod tarbiyasida ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jadid taraqqiyparvarlarining ilg'or g'oyalari bugungi yoshlar ongida milliy o'zlikni anglash, Vatanga sadoqat va taraqqiyot sari intilish tuyg'ularini shakllantirishda bebaho manbadir. Ularning ilm, birlik va ma'rifat haqidagi qarashlarini keng targ'ib qilish – yosh avlod tarbiyasida milliy istiqlool mafkurasining muhim tayanchidir. Bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun, eng avvalo, ta'lim tizimida milliy tarix va qadriyatlarga e'tiborni kuchaytirish, yoshlarni buyuk ajdodlar merosi hamda jadidlarning ma'rifatparvarlik qarashlari bilan tanishtirish zarur. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanib, vatanparvarlik ruhini targ'ib qiluvchi turli loyiha va tashabbuslarni kengaytirish muhimdir. Oila, maktab va jamiyatning hamkorlikda harakat qilishi esa yoshlar qalbida Vatanga muhabbat, milliy g'urur va mas'uliyat tuyg'usini yanada mustahkamlaydi. Ana shunday kompleks yondashuv orqaligina biz vatanparvar, bilimli va komil yosh avlodni tarbiyalashga erishamiz.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: 1913.
2. Behbudiy M. Padarkush. – Samarqand, 1913.
3. Fitrat A. Milliy matbuotimiz. – Istanbul, 1917.
4. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т. 7. – Т.:Ўзбекистон, 1999. – Б. 13.
5. Мирзиёев Ш.М." Жади́длар: миллий ўзлик, истиқлол ва давлатчилик гоёлари" мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига. 11.12.2023 [https://president.uz/uz/lists/view/6919 \(18.09.2024\)](https://president.uz/uz/lists/view/6919 (18.09.2024))
6. Raxmankulov, F. R. (2024). VATANARVAR MULKDORLARNI TARBIYALASH BUGUNGI DAVRNING DOLZARB VAZIFASI. Academic research in educational sciences, 5(2), 536-543.
7. Qodirov B. O'zbek jadidchilik harakati va uning ma'naviy merosi. – Toshkent: Fan, 2010.
8. Ziyo A. Jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2001.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 12-oktabrdagi Buxorodagi saylovchilar bilan uchrashuvdagi nutqi. [https://president.uz/uz/lists/view/4695 \(09.08.2025\)](https://president.uz/uz/lists/view/4695 (09.08.2025))
10. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz. –Т.: –O'zbekiston, 2017 yil.
11. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz. –Т.: –O'zbekiston, 2017 yil.
12. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т. 7. – Т.:Ўзбекистон, 1999. – Б. 13.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 12-oktabrdagi Buxorodagi saylovchilar bilan uchrashuvdagi nutqi.
<https://president.uz/oz/lists/view/4695> (09.08.2025)
14. Raxmankulov, F. R. (2024). VATANARVAR MULKDORLARNI TARBIYALASH BUGUNGI DAVRNING DOLZARB VAZIFASI. Academic research in educational sciences, 5(2), 536-543.
15. Мирзиёев Ш.М."Жадидлар: миллий ўзлик, истиқлол ва давлатчилик гоялари" мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига. 11.12.2023
<https://president.uz/uz/lists/view/6919> Qaraldi; (18.09.2024)

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-
jild, 8-son (sentyabr, 2025-yil). – 47 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 26-sentyabr

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.